



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
5-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-5**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-5**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 25 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

1. Ражабов Бахтиёр Алмахматович, Рашидов Бехзод Нурбоевич ЎЗБЕКИСТОНДА «ХАВФСИЗ ШАҲАР» КОМПЛЕКС ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ ДОИРАСИДА ҲАРАКАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	7
2. Matchanova Barno Irkinovna “DAVLAT BOSHQARUVI” TUSHUNCHASINING MA’MURIY HUQUQ SOHASIDA QO‘LLANILISHI	11
3. Qalandarova Iroda Hamdam qizi, Jalilov Temur To‘rayevich ZAMONAVIY DAVRDA DAVLAT BOSHQARUVI : NAZARIY QARASHLAR.....	13
4. Ахорова Ситора Талъатовна DAVLAT BOSHQARUVI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	15
5. Gaibnazarov Sardorbek, Rajabboyev Jo‘rabek DAVLAT BOSHQARUVI VA LIDERLIK MASALALARI.....	17
6. Jalilov Temurbek DAVLAT BOSHQARUVIDAGI KORRUPSIYA HOLATLARINI OLDINI OLISHNING DOLZARB MASALALARI	19
7. Kutlimuratov Sardorbek, Sapayev Valisher DAVLAT BOSHQARUVINING TAMOYILLARI: NAZARIY YONDASHUV	21
8. Madraximov Atabek, Sapayev Alisher BOSHQARUVDA LIDERLAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING AYRIM MASALALARI	23



ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

ЎЗБЕКИСТОНДА «ХАВФСИЗ ШАҲАР» КОМПЛЕКС ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ ДОИРАСИДА ҲАРАКАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Ражабов Бахтиёр Алмахматович,
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги
Академияси Жиноят ҳуқуқи кафедраси бошлиғи,
юридик фанлар доктори, доцент

Рашидов Бехзод Нурбоевич,
Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси
Жиноят-процессуал ҳуқуқ кафедраси бошлиғи,
юридик фанлар номзоди, доцент

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон Республикасида «хавфсиз шаҳар» комплекс дастурий таъминоти доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш масалалари таҳлил қилинган. Таҳлиллар натижалари бўйича «хавфсиз шаҳар» комплекс дастурий таъминоти доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлашга йўналтирилган тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар. Хавфсиз шаҳар, ҳаракат хавфсизлиги, хавфсиз йўл, хавфсиз туризм, видеокузатув, ахборот-коммуникация технологиялари, дастурий таъминот.

Жаҳоннинг ривожланган давлатларида бўлгани каби [1] мамлакатимизда ҳам хавфсизликнинг техник тизимларини ҳам замон билан ҳамнафас ривожланиб бораётгани жамоат хавфсизлигини таъминлаш, тинчлик ва осойишталикни янада мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда. Республиканинг барча жабҳаларида замонавий талабларга жавоб берадиган комплекс электрон қўриқлаш [2], видеокузатув, таҳлилий «ақлли датчик»лар тизимлари, қонун бузилишларининг олдини олишга қаратилган ахборот тизимлари, навбатчи диспетчерлик ва маълумотларни қайта ишлаш марказларини интеграция қилишга қаратилган тизимлар ҳамда турли вазифаларни бажариш учун мослаштириладиган смарт камералар ва бошқа кўплаб илғор технологиялар ҳам муваффақиятли жорий этиб борилмоқда.

Зеро, бугунги кунда юртимизда «Хавфсиз шаҳар» ва «Хавфсиз туризм» (Бухоро, Самарқанд, Хива ва Шаҳрисабз шаҳарларида [3]) каби дастурий комплексларнинг ишлаб чиқилиб, ҳаётга тадбиқ этилаётгани аҳолининг хавфсизлигини таъминлаш, уларнинг тинчлиги ва осойишталигини янада мустаҳкамлашга самарали хизмат қилиб келмоқда.

Хусусан, «Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 августдаги «Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида лойиҳа бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3245-сон қарорига [4] мувофиқ, 2019-2023 йилларда «Хавфсиз шаҳар» лойиҳасини босқичма-босқич республиканинг барча ҳудудларида жорий этиш белгиланган.

Айнан ушбу қарор ижросини самарали таъминлаш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 майдаги «Хавфсиз шаҳар» лойиҳасини амалга ошириш бўйича босқичма-босқич чора-тадбирлар ва ягона технологик ёндашувни ташкил қилиш тўғрисида»ги 343-сон қарори қабул қилинган бўлиб, унга кўра «Хавфсиз шаҳар» лойиҳасининг техник ҳужжатлари ишлаб чиқилган.

Шунингдек, ушбу лойиҳа доирасида қуйидаги ишлар амалга оширилиб келинмоқда:

1) Тошкент шаҳридаги барча қисқа рақамли тезкор навбатчилик — 101, 102, 103, 104, 1050, 1055 хизматлари «Ягона вазиятлар маркази»га жамланган ҳолда «112» «Ягона диспетчерлик хизмати»ни жорий этиш бўйича «Техник топшириқ» ишлаб чиқилди;

2) Тошкент вилоятида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг автоматлаштирилган тизимини жорий этиш лойиҳаси ишлаб чиқилиб, 11,328 млн. евролик шартнома имзо-



ланиб, 2020 йил 1 июль ҳолатига 4,1 млн. доллар тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар киритилди;

3) Тошкент вилояти ҳамда Фарғона водийсида 19 та «Nexia-3» русумли автотранспортга мобил комплекс ускуналари ўрнатилиб, ишга туширилди;

4) Тошкент шаҳрининг Шайхонтохур туманида жами 142 та ижтимоий соҳа объекти ва аҳоли гавжум жойларда жами 898 дона интеллектуал видеокузатув тизими қурилмалари ўрнатилиб, ишга туширилди;

5) Тошкент вилоятининг Бўстонлиқ тумани «Чорвоқ» эркин туристик зонасида «Хавфсиз туризм» лойиҳасини амалга ошириш бўйича 146 та ижтимоий объектга 500 дан ортиқ видеокузатув камераси, радар ва ноқонуний автотураргоҳни аниқлаш ускунаси ҳамда асосий чорраҳаларда фото-видео қайд этиш қурилмаларини ўрнатиш юзасидан лойиҳалар амалга оширилди [5].

Таъкидлаш жоизки, «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси доирасида бир қатор ижобий ишлар амалга оширилаётган бўлсада, мамлакатимизда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг смарт тизимларини яратиш ва бу борада хавфсиз йўл дастурий таъминотини ишлаб чиқиш борасидаги ишларни талаб даражасида деб бўлмайди.

Ҳолбуки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармон ва Қарорлари, ички ишлар вазирлигининг «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 9 майдаги «Ўзбекистон Республикаси йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ҳамда ушбу қарор билан тасдиқланган «2018-2020 йилларда Ўзбекистон Республикасида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш» Концепцияси ва уни 2018-2019 йилларда амалга ошириш бўйича «Йўл харитаси»нинг ижросини таъминлаш бўйича қатор ишлар амалга оширилаётганлигига [6] қарамасдан биргина 2019 йилда қарийб 5 миллионга йўл ҳаракати қоидабузарлиги қайд этилиб, шундан 2 млн. 55 минг 254 таси қўпол қоидабузарлик, 25.120 нафар маст ҳайдовчи, 252.072 нафар қоидабузар пиёдалар аниқланганлиги, шунингдек 2020 йилнинг 6 ойи давомида содир этилган йўл транспорт ҳодисаларининг 384 тасида баданига жароҳат етказилган одамларнинг сони 384 нафарни ва ўлим билан боғлиқ ҳодисалар эса 36 тани ташкил этганлиги [7] ҳамда транспорт воситаларининг сони ўтган йиллардагига нисбатан 150.000 тага ошганлиги [8] бу борада аҳоли хавфсизлигини таъминлашнинг такомиллаштирилиши зарурати мавжудлигини кўрсатади.

Зеро, аҳоли хавфсизлигини таъминлашда йўл ҳаракати хавфсизлиги жуда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уни таъминламаслик жуда кўп салбий оқибатларни келтириб чиқариши мумкин.

Фикримизча, Ўзбекистон Республикасида «хавфсиз йўл» комплекс дастурий таъминотини ишлаб чиқиш ва жорий этиш вақти келди. Бизнингча, «Хавфсиз йўл» комплекс дастурий таъминоти ўз ичига қуйидаги асосий йўналишлар ҳамда тадбирларни босқичма-босқич камраб олиши лозим:

1) содир этилган йўл транспорт ҳодисаларининг сабабларига оқилона ва мунтазам таъсир кўрсатадиган йўл ҳаракати хавфсизлигини яхшилаш бўйича устувор чора-тадбирлар тизимини шакллантириш;

2) барча ҳудудлардаги автомобиль йўлларида, жумладан пиёдалар ҳаракати серкатнов бўлган ҳудудларда қўшимча ер ости ва усти пиёдалар ўтиш жойларини барпо этиш;

3) ҳудудлардаги автомобиль йўлларидаги инфратузилмасини такомиллаштириш, йўл белгилари ва чизиқларини замонавий талабларга жавоб берадиган даражага келтириш, шунингдек йўл копламаларидаги нотекисликларни (чуқур ва дўнгликлар)ни бартараф этиш;

4) йўл-транспорт ҳодисаларида жабрланганларга, зудликда ва сифатли тез тиббий ёрдам кўрсатишнинг самарадорлигини ошириш орқали замонавий тиббий ёрдам тизимини янада ривожлантириш (*йўл-транспорт ҳодисалари натижасида ўлимни камайтиришига таъсир қилувчи тиббий омиллар: реанимация воситалари, ўқув ва фантом ускуналарини сотиб олиш нуқтаи назаридан ўз вақтида тез тиббий ёрдамни ташкил этиши, йўл-транспорт ҳодисаларида тиббий ёрдам кўрсатишида иштирок этаётган шахсларни ўқитиши сифатини ошириши; тиббий асбоб-ускуналарни сотиб олиш нуқтаи назаридан соғлиқни сақлаш муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлашни давом эттириши; йўл-транспорт ҳодисаларида жабрланганларга ёрдам кўрсатиши билан боғлиқ хизматларни мувофиқлаштириши даражасини ошириши ва тезкор видеоалоқа тизимини яратиши нуқтаи*



назаридан янги технологияларни жорий этиш);

5) худудлардаги барча чорраҳаларни ҳуқуқбузарликларни автоматик тарзда қайд этувчи видеокузатув мосламалари, тирбандликларни камайтиришнинг смарт имкониятларига эга бўлган светофорлар билан жиҳозлаш, шунингдек автомобил йўлларида узоқ масофалардан туриб тезликни оширишни автоматик тарзда қайд этувчи мосламаларни кўпайтириш;

6) мактабларда ва мактабгача таълим муассасаларида йўл ҳаракати хавфсизлиги ҳаракатларини ўйин шаклида бажаришга ўргатадиган ускуналар билан жиҳозлаш, шунингдек болалар билан йўл-транспорт жароҳатларини олдини олиш ва йўл ҳаракати хавфсизлигида тўғри иштирок этишга ўргатувчи оммавий тадбирларни тизимли равишда ўтказиб бориш.

«Хавфсиз йўл» комплекс дастурий таъминотининг яратилиши *биринчидан*, «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси доирасидаги вазифаларни сифатли ижросини таъминлашга кўмаклашади ҳамда ушбу лойиҳанинг самарали тизимларидан бирига айланади, *иккинчидан* «Хавфсиз уй», «Хавфсиз мактаб», «Хавфсиз болалар боғчаси», «Хавфсиз савдо маркази», «Хавфсиз шифохона», «Хавфсиз вокзал» ва бошқа лойиҳаларнинг самарали фаолият кўрсатишида муҳим аҳамият касб этади.

Таъкидлаш ўринлики, «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси доирасида бир қатор ривожланган давлатлар (Туркия, Швеция, Россия, АҚШ)нинг [1] тажрибаларининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ушбу давлатларда «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси ва унинг доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш бир қатор хусусий секторлар билан ҳамкорликда ишлаб чиқилган дастурий таъминотларга асосланган.

Хусусан, бугунги кунда аксарият давлатларда «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси доирасида «Milestone Systems» халқаро компанияси билан шартномалар имзоланган бўлиб, ушбу компанияда 150 мингдан ортиқ замонавий смарт ахборот коммуникация технологиялари мавжуд бўлиб, бу турли хил объектлар, шу жумладан шаҳар ва транспорт инфратузилмаси учун хавфсизлик муаммоларини ҳал қилиш ҳамда «Хавфсиз шаҳар» лойиҳалари орқали жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича катта тажриба бўлиб ҳисобланади [1].

«Milestone Systems» халқаро компанияси «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси ва унинг доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида ўрнатадиган смарт ахборот коммуникация технологияларига бир қатор талаблар қўйилган бўлиб, улар сифатида кўйидагилар белгиланган: 1) ахборот коммуникация технологиясини тўғри танлаш; 2) марказлаштирилган видеокузатувнинг мавжудлиги ва унинг бошқарилиши; 3) микёсли тавсифларга эга бўлиши (катталаштириш, яқинлаштириш имкониятлари); 4) барқарорлик; 5) иқтисодий самарадорлик; 6) қулайлик ва куп функциялилики; 7) кўшимча қулайликлар дастурларининг ўрнатиш имкониятининг мавжудлиги.

Бизнингча, келгусида «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси ва унинг доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида хорижий инвестициялар ва «Milestone Systems» каби халқаро компанияларнинг имкониятларидан фойдаланиш, келгусида бу борада хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибаларини жорий қилиш истиқболларини режалаштириш яхши самара беради.

Ҳолбуки, бугунги кунда «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси ва унинг доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш бўйича қадамлар ташланган бўлиб, лойиҳа доирасида Германиянинг «Atlas International» компанияси билан 300 млн евролик инвестиция лойиҳасини амалга ошириш бўйича келишув имзоланган [9].

«Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси ва унинг доирасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлашнинг пировардида ички ишлар органлари, давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг ахборот тизимлари, видеокузатув тизимлари, ҳуқуқбузарликларнинг қайд этилиши, объектлар қўриқланишини, эҳтимол тутилган хавф-хатарлар тўғрисида барвақт хабардор қилиш ва уларга эътибор қаратиш интеллектуал таҳлил ускуналари, шунингдек, ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси бўйича бошқа ахборот тизимлари, навбатчи-диспетчерлик марказлари ҳамда маълумотларга ишлов берувчи марказларнинг интеграциялашуви [4] билан бир қаторда аҳоли хавфсизлигини таъминлашнинг такомиллашувига эришилади деб ҳисоблаймиз.



Список литературы / References:

1. Решения Milestone Systems для «Безопасного города» [Электрон манба] // URL: <http://secuteck.ru/articles2/videonabl/resheniya-milestone-systems-dlya-bezopasnogo-goroda/> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
2. Фуқаролар хавфсизлигини таъминлашда «хавфсиз шаҳар» комплексининг аҳамияти [Электрон манба] // URL: <http://www.milliygvardiya.uz/page?id=68> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 23 ноябрдаги «Бухоро, Самарқанд, Хива ва Шаҳрисабз шаҳарларида хавфсиз туризмни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 939-сон қарори [Электрон манба] // URL: <https://lex.uz/docs/3422680> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 августдаги «Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида лойиҳа бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3245-сон қарори [Электрон манба] // URL: <https://www.lex.uz/docs/3324016> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
5. «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси: ҳаммаси режадагидек [Электрон манба] // URL: <https://www.xabar.uz/tehnologiya/xavfsiz-shahar-loyihasi-hammasi> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
6. 323 та йўл-транспорт ходисаси, шундан 29 таси пиёдалар айби билан [Электрон манба] // URL: <http://auz.uz/news/323-ta-yul-transport-khodisasi-shundan-29-tasi-piyodalar-aybi-bilan> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
7. 2020 йилнинг 1 январь кунидан 7 июлига қадар содир бўлган йўл-транспорт ходисалари статистикаси: ўтган йилнинг шу даврига нисбатан қиёсий таҳлил [Электрон манба] // URL: <https://iibb.uz/uz/news/statistika> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
8. 2019 йилда қарийб 5 миллионга йўл ҳаракати қоидабузарлиги қайд этилган [Электрон манба] // URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2019/11/01/yth-2019/> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).
9. «Хавфсиз шаҳар» лойиҳаси доирасида Германия компанияси 300 млн евро инвестиция киритади [Электрон манба] // <https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/02/xavfsiz-shahar/> (мурожаат қилинган вақт: 18.01.2021).



“DAVLAT BOSHQARUVI” TUSHUNCHASINING MA’MURIY HUQUQ SOHASIDA QO‘LLANILISHI

Matchanova Barno Irkinovna

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
matchanova1985@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvi tushunchasining ma’muriy huquq fanida qo‘llanilishi va unga turli yondashuvlarning mavjudligi tahlil qilib o‘tilgan. Shu bilan birga turli olimlarning yondashuvlari bugungi kun nuqtai nazaridan nazariy tahlil qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, ma’muriy islohot, ma’muriy nazorat, ijro hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, boshqaruv tizimi, boshqaruv elementlari, boshqaruv hususiyatlari, boshqaruv qobiliyati.

Ma’muriy huquq sohasida “davlat boshqaruvi” tushunchasi turli yondashuvlar asosida o‘rganiladigan, so‘nggi 10 yillikda esa ko‘proq e’tibor qaratilayotgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Shunday bo‘lsada boshqaruv tizimidagi tub o‘zgarishlar natijasida «davlat boshqaruvi» atamasi o‘zining ma’nosi doirasi kengayganligi ko‘plab olimlar tomonidan takidlab kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida ma’muriy sohada bu tushunchaga kengaytirilgan ta’riflarni ishlab chiqish masalasini dolzarblashtirmoqda va ko‘pchilikka maqul bu ta’rifni ishlab chiqish va davr ruhiga moslashtirish masalasi atrofida olimlarni tadqiqot olib borishiga turtki bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga nazar tashlasak, bevosita davlat boshqaruvi tushunchasiga ma’nodosh o‘rinlarda «ijro etuvchi hokimiyat» tushunchasini ishlatilganligini ko‘ramiz. Bu albatta terminologik o‘zgarish o‘z navbatida to‘la davlat boshqaruvini qamrab oladigan mazmunda ishlatiladi. Konstitutsiyada ijro etuvchi hokimiyat tushunchasining ishlatilganligi ijtimoiy hayotimizda davlat boshqaruvi tushunchasining iste’moldan tushganini bildirmaydi. bundan tashqari, «davlat boshqaruvi» ma’muriy huquq fani uchun hali ham asosiy kategoriyalardan biri bo‘lib qolmoqda. «Davlat boshqaruvi va ijro etuvchi hokimiyat» kategoriyalarining mohiyatini anglash sub’ektni va demakki, ma’muriy huquqning mohiyatini huquq sohasi sifatida tushunishda asosiy rol o‘ynaydi». Shuning uchun ma’muriy huquq bo‘yicha o‘quv adabiyotlarning aksariyati «boshqaruv», «ijtimoiy boshqaruv», «davlat boshqaruvi» va «ijro etuvchi hokimiyat» tushunchalarini va ularning orasidagi o‘ziga xos bog‘liqlikni tahlil qilish bilan boshlanadi. Ma’muriy hususq sohasidagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va ulardagi ilgari surilgan fikrlarga asoslanadigan bo‘lsak, ma’muriy huquq sohasidagi hozirgi tadqiqotlar «davlat boshqaruvi» tushunchasini mazmunini aniqlashga qaratilgan ikkita asosiy yondashuvlarni ishlab chiqqanliklarini ko‘rishimzi mumkin. Ular keng ma’noda davlat boshqaruvi va tor ma’noda davlat boshqaruvi.

Ushbu yondashuvlarning ikkitasini ham yaxshiroq tushunishimiz uchun ba’zi ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlarning pozitsiyalarini ko‘rib chiqamiz mumkin. Masalan, A.P.Alexin va A.A.Karmolitskiylar o‘zlarining ko‘p yillik tadqiqotlaridan keyin davlat boshqaruvini keng ma’noda ko‘rib chiqib, “davlat boshqaruvi” tushunchasini talqin qilishning uchta variantini ajratib ko‘rsatishni taklif qilishmoqda.

Birinchidan, ular “davlat boshqaruvi”ni ijtimoiy boshqaruv turi sifatida belgilaydilar, va ijtimoiy munosabatlarda va umuman ijtimoiy jarayonlarni bir darajadan ikkinchi darajaga o‘tishida sezilarli ahamiyati mavjud deya ta’kidlashadi. Shuningdek uning sub’ekti sifatida davlatni ko‘rsatishadi.

Ikkinchidan, jamiyatning rivojlanishiga, uning taraqqiy etib borishiga uning barcha organlarining ta’sir etish shakli sifatida davlat boshqaruviga murojaat qilshadi. Va aynan bu terminda shaxsga davlatning maqsadli tashkiliy ta’sirini fodalovchi tushuncha sifatida ko‘rsatiladi.

Uchinchidan, mazmuni qonun ijodkorligi, odil sudlovni amalga oshirish, prokuratura nazorati konstitutsiyaviy funksiyalarini bevosita o‘z ichiga oladigan, davlat faoliyatini tashkil etishni angatuvchi tushuncha ekanligi ko‘rsatiladi. Bunda davlat boshqaruvi tushunchasi quyidagilarni anglatadi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti; vakillik (qonun chiqaruvchi), sud organlari, prokuratura. Ular siyosiy jarayonlardagi ko‘plab tashkiliy, boshqaruv masalalarini hal qilishadi, masalan, davlat organlarini shakllantirish, mansabdor shaxslarni tayinlash bilan bog‘liq masalalar. Ushbu organlar doirasida, shuningdek, ularning asosiy faoliyatiga nisbatan yordamchi vazifalarni



bajaradigan davlat apparat shakllanadi. Bunday davlat apparatini boshqarish va uning faoliyati ham boshqaruv xususiyatiga ega;

b) ijro etuvchi hokimiyat va boshqa davlat organlari. O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida keltirilganidek “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Yu.N.Starilov davlat boshqaruvini keng ma’nodagi ko‘rib chiqib, “bu umuman davlatning tartibga soluvchi faoliyati (hokimiyatning vakillik organlari, davlat hokimiyati ijro etuvchi organlari, prokurorlar, sudlar va boshqalar) faoliyati.” Degan xulosaga keladi. Uning zamondosh olimlaridan biri I. L. Baxilov davlat boshqaruvini keng ma’nodagi quyidagicha ta’riflaydi: «... hokimiyat va qonuniy usullar yordamida jamiyatdagi jarayonlar va munosabatlarning rivojlanishiga davlatning uyushgan ta’siri. ... Keng ma’nodagi davlat boshqaruvi barcha davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi “. Keng va tor ma’nodagi davlat boshqaruvida oid olimlarning taqdim etgan pozitsiyalarini umumlashtirib, o‘z nuqtai nazarini keltirgan Y.A.Tixomirovning fikri o‘zining keng qamrovligi bilan boshqa tadqiqotchilarning yondashuvlaridan farq qiladi. Ya’ni “davlat boshqaruvi uchun prezident, hukumat va boshqa ijro etuvchi organlar, vakil tomonidan amalga oshiriladigan, umumiy ahamiyatga ega funktsiyalarni bajarish, tartibga solish va ma’muriy tartibga solish, xususiyatlar xarakterlidir.

Shunday qilib, davlat boshqaruvi nazariyasida umumiy xarakterga ega bo‘lgan va umuman davlat boshqaruvi tavsiflovchi “keng“ va “tor” ma’nodagi yondashuvlarni o‘rganishning o‘ziga xos hususiyatlarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Григорьева Н. С. Гражданин и общество в контексте реформ здравоохранения // Управление здравоохранением. 2001. № 3(4). С. 81-91.
2. Кричевский Р.Л. Если вы руководитель: элементы психологии менеджмента в повседневной работе / Р.Л. Кричевский. - М.: Дело, 2017. - С. 56.
3. Политология: Лексикон / под ред. А.И. Соловьева. М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2007.



ZAMONAVIY DAVRDA DAVLAT BOSHQARUVI : NAZARIY QARASHLAR

Qalandarova Iroda Hamdam qizi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Jalilov Temur To'rayevich

Urganch davlat universiteti talabasi

jalilov-2017@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy davrda davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari haqida muallifning shaxsiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Yakuniy xulosalar manbalardagi fikr-mulohazalarga asoslanib keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, boshqaruv sub'ekti, boshqaruv ob'ekti, boshqarish ob'ektini boshqarish, boshqaruv tizimi, paradigim.

Boshqaruv - bu inson hayotining va uni tashkil etishning kuchli immanent "atributi"dir. Boshqaruvning mohiyati inson va ijtimoiy hamjamiyatning ikkita asosiy o'zaro bog'liq fazilatlar bilan belgilanadi. Uning o'ziga xos xususiyatalaridan yana faoliyat va maqsadni belgilash ham bor. Boshqaruvning faoliyatga o'tishi deganda shaxs va uning jamoasining har qanday ratsional (ongli) harakati tushuniladi. Maqsadni belgilash, shu bilan birga, ushbu faoliyat ma'lum bir mo'ljallangan natijani olishga qaratilganligini ko'rsatadi. Boshqaruv kontseptsiyasining ko'plab ta'riflari mavjud. Biz ushbu tadqiqot ishimiz uchun eng mos keladigan ikkita shaxsiy yondashuvimizni keltiramiz. Boshqaruv - bu "shaxsning, ijtimoiy guruhlarning, maxsus yaratilgan organlarning atrofida ijtimoiy hayotimizdagi sodir bo'layotgan turli xil narsalarga va jarayonlarga, odamlarga va odamlar o'rtasidagi munosabatlarga ongli ravishda ta'sir qilishi, ob'ektlarning muayyan holatiga kelishi, jarayonlarga kerakli yo'nalish berish, kerakli, talab qilingan, rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatdir. Ikkinchi bir ta'rifda keltirilishicha esa "boshqaruv - bu aslida bevosita (o'zini o'zi boshqarish shakllarida) va maxsus yaratilgan tuzilmalar (davlat,) orqali amalga oshiriladigan, odamlarning o'zlarining, ijtimoiy, jamoaviy va guruh hayotiga ta'sirini tashkil qilish va tartibga soluvchi jamoat birlashmalari, partiyalar, firmalar, kooperativlar, korxonalar, uyushmalar, uyushmalar va boshqalarning olib boradigan faoliyatidir». Bu ikki ta'rifdan kelib chiqqan holda eng umumiy shaklda boshqaruvga ta'rif keltiradigan bo'lsak boshqarish ijtimoiy tizimli hodisa sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir. Boshqaruv tushunchasi ko'plab tadqiqotchi olimlarning keltirilishicha uchta elementdan (quyi tizimlardan) iborat bo'lgan, alohida elementlarni o'zida birlashtirgan alohida tizimdir. Bu elementlarni quyidagi asosiy elemental guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- boshqaruv sub'ekti,
- boshqaruv ob'ekti va
- boshqarish ob'ektini boshqarish uchun lozim bo'lgan sub'ektning boshqaruv mexanizmi.

Bundan kelib chiqadiki boshqaruv ijtimoiy jarayon sifatida boshqaruv sub'ektining boshqaruv ob'ektiga maqsadga muvofiq, rejalashtirilgan va tizimli ta'siridir. Shunday qilib, yuqoridagi tizim ichidagi kichik uchta tizimosti elementlar birikmalariga quyidagilar misol bo'la oaldi:

- boshqaruv tizimi sifatida davlat boshqaruvi quyidagilarni tashkil etadi;
- boshqaruv sub'ekti sifatida - davlat organlari va ularni vazifalarini bajaruvchilar tushuniladi;
- boshqaruv ob'ekti sifatida - jamiyat, jamiyat hayoti sohalari, ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslar, shuningdek davlat boshqaruvi mexanizmi
- boshqaruv sub'ektining boshqaruv ob'ektiga ta'sirini tashkil etish jarayoni tushuniladi.

Boshqaruv jarayonlarining rivojlanishiga inson va boshqaruv subektlarining o'zaro ta'siri sabab bo'lib boradi. Chunki, davlat boshqaruvi - bu davlatning hududiy yaxlitligini, uning aholisi (fuqarolari) farovonligini ta'minlash bo'yicha davlat hokimiyatining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning tuzilishining sivilizatsiyalashgan me'yorlari asosida, shuningdek, davlat hokimiyati organlarining o'zlarining kuch funktsiyalarini qonuniylashtirish va optimallashtirish bo'yicha maqsadli faoliyatidir.

Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida davlat boshqaruvi, uning maqsadlari va funktsiyalarini tushunishda umumiy, tizimli tasavvur va yondashuv mavjud emasligini ham



alohida ta'kidlash o'rinlidir. Boshqaruv tushunchasining turli mamlakatlarda, xalqning o'ziga xos mentalitetini hisobga olgan holda, uning turli xil paradigmalari mavjud va alohida konsepsiyalari keltiriladi. O'zbekistonning rivojlanishining tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, davlat boshqaruvi kontsepsiyasi mavjud bo'lib u asosiy ikki tayanch nuqtalari mavjud . Bular :

- umuminsoniy qadriyatlar va tendensiyalar
- milliy qadriyat daraajasiga ko'tarilgan tarixiy rivoj topib borayotgan boshqaruvga oid tendensiyalar.

Ushbu boshqaruv konsepsiyasi o'zining tarixiy asoslarini buyuk alloma ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Amir Temurning "Temur tuzuklar" Xusayn Voiz Koshifiyning "Futuvvati sultoniy" va boshqa shu kabi asarlardan oladi

Tarixiy rivojlanishning zamonaviy sharoitida uning bir vaqtning o'zida o'sib borayotgan qarama-qarshi jarayonlari: ko'p qutblilik va globallashuv, mamlakatimizda boshqaruv tizimining holatini tizimli ravishda demokratik ruxda liberal g'oyalar asosida isloh qilib borishni taqozo qilmoqda.

Demk, muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mamlakatimizda zamonaviy davlat boshqaruvida tushunish va amalga oshirish kerak bo'lgan asosiy qoidalar va shartlarga amal qilish zamonaviy jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini bilib olish ijtimoiy hayotimizdagi barqaror rivojlanishga sabab bo'ladigan asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2012.
2. Атаманчук, Г.В. Теория государственного управления [Текст] / Г.В. Атаманчук: Учебник. 3-е изд., стер. М.: Издательство «Омега-Л», 2013. 525 с.
3. Kattakishiyev B, Mamayusupov I. Strategik menejment.-T.: "Fan va texnologiya", 2008.
4. Qosimov G'.M. Menejment.-T.: "O'zbekiston", 2002.



DAVLAT BOSHQARUVI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ахророва Ситора Талъатовна

Мирзо Улуғбек номидаги

Самарқанд давлат архитектура

ва қурилиш институти. Стажёр ўқитувчи.

Телефон: +998902718003

messiolimjon1212@gmail.com

Аннотация. Мақоллада Davlat boshqaruvining muammolari va istiqbollari, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, hukumat faoliyati samaradorligini oshirish xamda O‘zbekiston sharoitida davlat boshqaruvini takomillashtirish haqida takliflar berilgan.

Калит so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, bozor iqtisodiyoti, iqtisod, siyosat, davlat, boshqaruv, dastur, mexanizm, samaradorlik,

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘tgan qisqa vaqt mobaynida iqtisodiyot tarmoqlarini faoliyatini erkin bozor tamoillari asosida tashkil etish va mamlakat iqtisodiyotini global dunyo bozori bilan uyg‘unlashuvini taminlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Prezident farmoni loyihasi taklif qilindi, 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan strategiyadan ko‘zlangan maqsad — olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishdan iborat.

Strategiyaning maqsadi mamlakat bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida kon‘yunktura o‘zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etdi.

Menimcha, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish uchun asosiy resurs bu siyosat emas, balki iqtisodiy takomillashtirishdir. Bu destruktiv siyosiy silkinishlarsiz amalga oshirilmaydi albatta ammo, kelajakda o‘z taraqqiyot mahsulini ko‘rsatib beradi. Davlat o‘zining mustaqilligini aniq maqsad va vazifalardan qat‘iy nazar o‘z-o‘zidan emas, balki faqatgina zamonaviy bozor iqtisodiyotining barqaror qoidalarini o‘rnatish jarayonida yaxshilashi mumkin.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari

Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish, Ozbekiston kelajagini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun bu eng muhim strategik vazifadir. Ayniqsa, hozirgi paytda moliyaviy va iqtisodiy inqiroz mamlakatni rivojlanish strategiyasini o‘zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimini doimiy takomillashtirish uchun ichki mexanizmi yaratish kerak.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘muriy boshqaruvni bilvosita, bozor boshqaruviga almashtirish zaruriy darajada muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti uchun barqaror qoidalarni shakllantirish davlatning asosiy maqsadi bo‘lmog‘i lozim.

Umuman olganda, barcha zarur choralarni uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

- tezkor natijalarga erishish,
- olti oy yoki bir yil ichida natijalarga erishish,
- natijalarni uzoqroq muddat ichida olib borish.

Ushbu bo‘linish amaliy mulohazalar bilan belgilanadi, chunki ushbu choralarni amalga oshirishi kerak bo‘lgan kuchlar tegishli davrlarning siyosiy vazifalaridan kelib chiqadi:

Ushbu dastur qisqa, tushunarli va jozibali shaklda bo‘lishi va uning samaradorligini oshirish yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilab berishi kerak.

